



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 14-oktabrdagi “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tashkil etiladigan umumxalq bayrami tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 01-08/5-10/579-sonli majlis Bayoni qarori to‘g‘risida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tashkil etiladigan umumxalq bayrami tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risidagi majlisi Bayoni qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida buyuraman:

- 1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 14-oktabrdagi “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tashkil etiladigan umumxalq bayrami tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 01-08/5-10/579-sonli majlis Bayoni qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**
- 2. Yuqoridagi Bayon qarori bilan:**
O‘zbek tili bayrami kunini nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;
O‘zbek tili bayrami kuniga bag‘ishlangan tadbirlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritish bo‘yicha media-reja 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- 3. Respublika ta‘lim markazi (Q.Jubanov) ga:**
1 kun muddatda O‘zbek tili bayramida ishtirok etuvchi o‘qituvchilar ro‘yxatini shakllantirish;
bayram munosabati bilan taqdirlash uchun ilg‘or va tashabbuskor o‘qituvchi va xodimlar ro‘yxatini Vazirlar Kengashiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.
- 4. Barcha tuman(shahar) xalq ta‘limi bo‘limi mudirlari hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalar direktorlariga bayram tadbirlarida ishtirok etuvchi o‘qituvchilar xavfsizligini ta‘minlagan holda o‘z vaqtida kelib-ketishlari yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.**
- 5. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (T.Dauletmuratov) o‘tkazilgan tadbir jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralari ko‘rsin.**
- 6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari v.v.b Q.Bekbaulievga topshirilsin.**

Asos: Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 14-oktabrda o'tkazilgan 01-08/5-10/579-sonli majlis Bayoni qarori

Vazir



R.Reimov

Nukus shahri

2021-yil 18 oktabr
224 - son